

6-SINF

(102 soat)

O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

mavzuga oid matnlar, topshiriqlar, audiovizual vositalar orqali berilgan xabarlar mazmunini, suhbatdoshining nutqini tinglab tushunadi;

mavzuga oid matnning mazmunini so‘zlab, savollarga javob beradi;

suhbatda muomala odobiga oid so‘z va jummalarni qo‘llaydi;

mavzular bo‘yicha matnlarni to‘g‘ri o‘qiydi;

berilgan topshiriqlar asosida savollarga javoblar yozadi;

nuqtalar yoki savollar o‘rniga mos so‘zlar va grammatik shakllarni qo‘yib yozish orqali matnni to‘ldirib yozadi yoki davom ettiradi.

41-50 so‘zdan iborat diktant va bayon matnini yozadi.

berilgan rasm yoki mavzular bo‘yicha 10-14 ta gapdan iborat matn tuzadi.

1 chorak (27 soat)

Obod o‘lkam (5 soat)

Leksika: Vatanimiz, o‘lka, diyor, shahar va qishloqlarimizda, turli millatlar, ahil va inoq, tinch va farovon, bunyodkorlik ishlari, turar joy binolari, litsey va kollejlari, keng ko‘chalar, ko‘priklar, sport majmualari, yashaydilar, yanada, qurilmoqda, obod bo‘lmoqda kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

Grammatika: Sifat darajalari.

Adabiy o‘qish: Qambar ota. “O‘zbekiston - onajon” she‘ri.

Kasblar (5 soat)

Leksika: kasblar, o‘qituvchi, tikuvchi, sotuvchi, shifokor, oshpaz, quruvchi, zardo‘zlik, me‘morchilik, mohir, gilamdo‘zlik, hunar, bo‘lib ishlaydi, kasbini tanlagan, o‘rgatmoq, tushuntirmoq, tasviriy san‘at kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

Grammatika: Oddiy daraja.

Adabiy o‘qish: Olqor Damin “Hamma hunar sevimli” she‘r. O‘rniga boshqa

Kutubxonada (4 soat)

Leksika: maktabimiz kutubxonasi, kutubxonachi, darsdan keyin, sinfdoshlarimiz bilan, qiziqtirgan kitoblar, sarguzasht asarlar, she‘riy kitoblar, har qaysimiz, ko‘proq, hammamiz, xursand bo‘ldik, olib o‘qidik, yaxshi ko‘radi, topib berdi kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

Grammatika: Ozaytirma darajalar

Adabiy o‘qish: Maqsud Qoriyev.”Kitob o‘qishning hikmati” (hikoyat).

Bilim – xazina (4 soat)

Leksika: bilim, tuganmas boylik, kitob - bilimlar kaliti, kitobni sevish, mutolaa qilish, o‘qigan – o‘zar, hech kim, allaqancha, hech qachon, kimdir, allakim, nimadir, qaysidir, qanchadir, hech qancha kabi tayanch birikmalar.

Grammatika: Orttirma daraja.

Adabiy o'qish: Quddus Muhammadiy. "Kitob bizniki" she'ri.

Tabiat va iqlim (4 soat)

Leksika: O'zbekiston tabiati, mintaq, baland tog'lar, keng sahrolar, jazirama issiq, quruq havo, ikki daryo oralig'i, so'lim vodiylar, mo'tadil iqlim, yog'ingarchilik, quyoshli kunlar, bulutli kunlar kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Son. Sanoq sonlar.

Adabiy o'qish: Hamid Olimjon. "O'zbekiston" she'ri.

NI – 3 soat

Takrorlash 2 soat

2 chorak (21 soat)

Tabiatni asrang (4 soat)

Leksika: tabiat, go'zallik, tozalik, toza havo, atrof-muhit tozaligi, tabiatni asrash, tabiatga zarar yetkazmaslik, loqayd bo'lmaslik, suvni ifloslantirmaslik, moddiy ne'matlarni asrash kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Tartib sonlar. Ularning yasalishi, talaffuzi va imlosi.

Adabiy o'qish: Tolib Yo'ldosh. "Yerning tili" she'ri.

Qish manzarasi (4 soat)

Leksika: Chimyon, Chortoq, Boysun, Zarafshon, Chotqol tog' tizmalari, dam olish maskanlari, qulay sharoitlar, so'lim oromgohlar, toza havo, shaharliklar, chana uchish, chang'i uchish kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Chama son. Ularning yasalishi, talaffuzi va imlosi

Adabiy o'qish: Andersen. "Qor malikasi" ertagi.

Chimyon tog'larida (4 soat)

Leksika: tog' tizmalari, qorli cho'qqilar, eng baland cho'qqi, tog' havosi, ko'm-ko'k archalar, dam olish maskani, dam oluvchilar, minglab, yuzlab, dam olish kuni, sayohat, tomosha qilmoq kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

Grammatika: Taqsim sonlar. Ularning yasalishi, talaffuzi va imlosi

Adabiy o'qish: "Manzara"

Muzeyda (4 soat)

Leksika: muzeylar, tarix muzeyi, tabiat muzeyi, adabiyot muzeyi, qadimgi eksponatlar, eski qo'lyozmalar, tanishib chiqmoq, o'z ko'zi bilan ko'rmoq, ma'lumot olmoq, hamma, barcha, bari kabi tayanch so'z va birikmalar.

Grammatika: Jamlovchi sonlar, ularning yasalishi, talaffuzi va imlosi.

Adabiy o'qish: Xalq og'zaki ijodi. Rivoyatlar.

NI -3 soat

Takrorlash – 2 soat

3 chorak (30 soat)

Ona yurt posbonlari (5 soat)

Leksika: ona yurt posbonlari, chegarachi, baquvvat, chaqqon va epchil, bo‘linma, askar, askarlarning ikkidan biri–yarmi, uchdan biri – choragi kabi tayanch so‘z va birikmalar.

Grammatika: Vaqtni ifodalash. Butun va kasr sonlar.

Adabiy o‘qish: Adabiy materiallar

Mashhur kishilar (5 soat)

Leksika: uyg‘onish davri, eng zabardast, kuchli namoyandalar, ulug‘ ajdodlarimiz, dunyoga mashhur insonlar kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

Grammatika: Олмош. Кишилик олмоши.

Adabiy o‘qish: Shukrullo. “Tirik qalb” she’ri.

Bahorgi ishlar (5 soat)

Leksika: bahorgi ishlar, uy yumushlari, dalada, bog‘da, tomorqada, hovli va ko‘chamizda, har kuni, ertalab, tushda, kechki payt, o‘z vaqtida, o‘tgan yil, yildan-yilga, kelasi yil, bu yil kabi tayanch so‘z va birikmalar;

Grammatika: Ko‘rsatish olmoshi.

Adabiy o‘qish: Leonardo da Vinchi. “Tok va bog‘bon” (rivoyat).

Milliy taomlar (5 soat)

Leksika: Milliy taomlar, Navro‘z taomlari, ko‘k somsa, ko‘k chuchvara, sumalak, halim, varaqi, qatlama, bo‘g‘irsoq, palov, palov tayyorlash, mohir oshpaz, oshpazlik sirlari kabi tayanch so‘z va birikmalar.

Grammatika: O‘zlik olmoshi.

Adabiy o‘qish: Karim Mahmudov “Mehmonnoma” kitobidan material

Navro‘z udumlari (5 soat)

Leksika: Navro‘z, udumlar, atrof orastalanadi, ko‘chalar, maydonlar, hovlilar, ariqlar, umumxalq hasharlari, navro‘z sayli kabi tayanch so‘z va birikmalar.

Grammatika: So‘roq olmoshlari.

Adabiy o‘qish: Rauf Tolib “Ko‘klam”

NI – 3 soat

Takrorlash – 2soat

4 chorak

Buyuk astronom (5 soat)

Leksika: Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, salobatli, odil, aqlli, o‘tkir zehqli, buyuk olim, koinot, yulduzlar, kuzatmoq, qiziqmoq, qurdirmoq, rasadxona, abadiylashtirish, madrasa, astronom, ilm markazi, Samarqand kabi tayanch so‘z va birikmalar.

Grammatika: Belgilash olmoshlari

Adabiy o‘qish: Raim Farhodiy “Yulduzlar charaqlaganda ” ertak-afsona

Bobom xotiralari (5 soat)

Leksika: xotira, xotirlash, qadr, qadriyat, qadrlash, yaxshilik, mardlik, jasorat, fidoyi insonlar, bobom xotiralari, xotira va qadrlash maydoni, mangu olov, abadiy qoladi kabi tayanch soʻzlar va birikmalar.

Grammatika: Boʻlishsizlik олмоши. **Ravish. Holat ravishlari**

Adabiy oʻqish: Oʻlmas Umarbekov. “Soat” hikoyasi.

Ona shahrim (5 soat)

Leksika: zamonaviy binolar, keng koʻchalar, chiroyli bekatlar, koʻpriklar, bozorlar, qadimiy obidalar, turar-joy komplekslari, qurilmoqda, barpo etilmoqda kabi tayanch soʻz va birikmalar.

Grammatika: gumon olmoshlari **Payt va oʻrin ravishlari**

Adabiy oʻqish:

Dam olish rejasi (4 soat)

Leksika: yozgi taʼtil, taʼtil rejasi, dam olish oromgohlari, sayohat, togʻlar bagʻri, bolalar oromgohida, dala hovlida, dam olmoqchiman, chiqmoqchi-man, bormoqchiman, rejalashtiryapman kabi tayanch soʻzlar va birikmalar.

Grammatika: Такролаш. **Miqdor-daraja ravishlari.**

Adabiy oʻqish: Temur Ubaydullo. “Yoz chorlaydi bagʻriga” sheʼri

NI – 3 soat

Takrorlash – 2 soat